INGLIZ TILI TO‘GARAK MASHG‘ULOTLARIDA “KITOBXONLAR KLUBI” MODELI ORQALI O‘QUVCHILARNING SOTSIOLINGVISTIK VA KOGNITIV KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH: O‘QITUVCHILAR SO‘ROVNOMASI NATIJALARI ASOSIDA EMPIRIK TAHLIL (7–9-SINFLAR MISOLIDA)

Madaminova Gulzira
Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya
Ushbu maqolada ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida “Kitobxonlar klubi” modelini joriy etish orqali 7–9-sinf o‘quvchilarining sotsiolingvistik va kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari empirik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida O‘zbekistonning turli hududlaridan 70 nafar ingliz tili o‘qituvchisi ishtirokida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari asosida amaldagi to‘garak mashg‘ulotlarining mazmuni, o‘quvchilarning motivatsiyasi, kompetensiyaviy rivojlanish holati hamda mavjud tashkiliy-metodik muammolar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *sotsiolingvistik kompetentsiya, kognitiv kompetentsiya, to‘garak mashg‘uloti, Kitobxonlar klubi, interfaol metod, chet tili ta’limi.*

KIRISH

Globallashuv sharoitida chet tilini o‘qitishning asosiy maqsadi nafaqat grammatik to‘g‘rilik va leksik boylikni shakllantirish, balki o‘quvchilarni real ijtimoiy-madaniy muhitda mulohazali muloqot qila oladigan shaxs sifatida tayyorlashdan iboratdir. Bu vazifa ayniqsa 7–9-sinf o‘quvchilari uchun dolzarb bo‘lib, aynan shu yosh bosqichida til o‘rganuvchilarda sotsiolingvistik sezgirlik va kognitiv mustaqillik shakllana boshlaydi. Darslikka asoslangan an’anaviy darslar bu jarayonni to‘liq qamrab ololmasligi sababli, sinfdan tashqari to‘garak mashg‘ulotlari ushbu kompetentsiyalarni rivojlantirishda muhim resurs hisoblanadi.

Biroq amaliyotda to‘garak mashg‘ulotlari ko‘pincha darsning takrori yoki grammatik mashqlarni mustahkamlash vositasi sifatida tashkil etiladi, bu esa ularning sotsiolingvistik va kognitiv salohiyatini yetarlicha ochib bermaydi. Shu nuqtai nazardan, kitob o‘qish, jamoaviy muhokama va madaniyatlararo taqqoslashni birlashtiruvchi “Kitobxonlar klubi” modeli istiqbolli yondashuv sifatida ilgari surilmoqda. Tadqiqotning yetakchi farazi quyidagicha: amaldagi to‘garak mashg‘ulotlarida sotsiolingvistik kompetentsiyani maqsadli rivojlantirish yetarli darajada amalga oshirilmayotgan bo‘lib, “Kitobxonlar klubi” kabi interfaol model bu bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qila oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqotning nazariy asosini kommunikativ kompetentsiya konsepsiyasi tashkil etadi. D. Hymes til bilimini nafaqat grammatik to‘g‘rilik, balki muayyan ijtimoiy vaziyatda nutqni o‘rinli qo‘llay olish qobiliyati sifatida ta’riflab, “kommunikativ kompetentsiya” atamasini ilmiy muomalaga kiritdi [3;270]. M. Canale va M. Swain ushbu g‘oyani rivojlantirib, kompetentsiyaning to‘rt tarkibiy qismini — grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik — ajratib ko‘rsatdi [2;45]. Aynan

sotsiolingvistik tarkibiy qism o‘quvchining til vositalarini ijtimoiy kontekst, suhbatdosh maqomi va madaniy me’yorlarga muvofiq tanlay olishini nazarda tutadi, bu esa mazkur tadqiqotning markaziy o‘rganish ob’ekti hisoblanadi.


Madaniyatlararo o‘lcham masalasida M. Byram tomonidan ishlab chiqilgan madaniyatlararo kommunikativ kompetentsiya modeli muhim ahamiyat kasb etadi. Unga ko‘ra, chet tilini egallash o‘zga madaniyatni anglash, taqqoslash va unga nisbatan ochiqlik ko‘nikmalarini ham qamrab oladi [1;55]. Bu yondashuv “Kitobxonlar klubi” modelining madaniyatlararo taqqoslashga asoslangan mazmuniy o‘zagini nazariy jihatdan asoslaydi. Kognitiv rivojlanish nuqtai nazaridan esa L.S. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi va “yaqin rivojlanish zonasi” tushunchasi tayanch bo‘lib xizmat qiladi: tengdoshlar bilan jamoaviy muhokama va hamkorlikdagi o‘qish o‘quvchining mustaqil bajara olmaydigan kognitiv vazifalarni guruh ko‘magida o‘zlashtirishiga imkon beradi [4;56].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning empirik bosqichida anketa-so‘rovnoma metodidan foydalanildi. So‘rovnoma “Google Forms” platformasida ishlab chiqilib, unda yopiq (tanlovli) va ochiq turdagi savollar uyg‘unlashtirildi. Savollar to‘rt mantiqiy blokga ajratildi: (I) to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etish shakli; (II) o‘quvchilarning motivatsiyasi va ishtiroki; (III) o‘quvchilarning kompetentsiyaviy rivojlanish holati; (IV) mashg‘ulotlarni tashkil etishdagi muammolar. Yakuniy bloklarda respondentlarning eng samarali deb hisoblagan faoliyat turlari hamda “Kitobxonlar klubi” modeliga munosabati aniqlandi.

So‘rovnomada O‘zbekistonning o‘ndan ortiq hududidan jami 70 nafar amaldagi ingliz tili o‘qituvchisi ishtirok etdi. Respondentlar tarkibi pedagogik ish staji bo‘yicha rang-barang bo‘lib, ularning taxminan 47 foizi 10–20 yillik tajribaga ega mutaxassislar sirasiga kiradi (1-rasm). Bu hol olingan baholarning uzoq yillik amaliy kuzatuvlarga tayanganligini va ma’lumotlarning ishonchliligini ta’minlaydi. Olingan natijalar miqdoriy (foiz nisbatlari) va sifatiy (ochiq javoblar mazmuni) jihatdan tahlil qilindi.

1-rasm. Respondentlarning pedagogik ish staji bo'yicha taqsimoti




NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Mashg‘ulotlarni tashkil etish shakli. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning aksariyati (73%) to‘garak mashg‘ulotlarini haftada ikki marta muntazam o‘tkazadi. Biroq mazmuniy ustuvorliklarni belgilashda o‘qituvchilar e’tibori an’anaviy yo‘nalishlarga qaratilgan: 43% respondent grammatik bilimlarni, 30% i nutqiy

faoliyatni birinchi o‘ringa qo‘ydi, madaniyat va muloqotni ustuvor deb belgilaganlar esa atigi 11% ni tashkil etdi (2-rasm). Eng ko‘p qo‘llaniladigan metodlar suhbat va muhokama (43%) hamda o‘yinli faoliyat (36%) bo‘lib, loyiha yoki klub shaklidagi faoliyat faqat 6% holatda kuzatildi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning 81% i o‘quvchilarga mustaqil fikr bildirish imkoniyatini doimiy ravishda taqdim etishini qayd etdi.


2-rasm. To'garak mashg'ulotlarining mazmuniy yo'nalishi va metodlari



Motivatsiya va ishtirok. Bu blok ziddiyatli manzarani namoyon etdi. O‘qituvchilarning 64% i o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’kidlagani holda, motivatsiya darajasini “o‘rtacha” deb baholaganlar ulushi (50%) “yuqori” deb baholaganlardan (44%) ustun keldi. Bu tafovut tashqi faollik o‘quvchilarning ichki, barqaror motivatsiyasini har doim ham aks ettirmasligini ko‘rsatadi.


Kompetentsiyaviy rivojlanish holati. Ushbu blok tadqiqot farazi nuqtai nazaridan markaziy ahamiyatga ega. Respondentlarning 71% i o‘quvchilarda ijtimoiy vaziyatlarda mos til vositalarini tanlash ko‘nikmasi — ya’ni sotsiolingvistik kompetentsiyaning bevosita ko‘rsatkichi — faqat “o‘rtacha” darajada shakllanganligini qayd etdi (3-rasm). Ayni paytda madaniyatlararo farqlarni his etish qobiliyati o‘quvchilarning 54% ida, yangi leksik birliklarni muloqotda qo‘llashga intilish hamda tanqidiy-tahliliy fikrlash unsurlari esa 71% ida kuzatildi. Bu ko‘rsatkichlar kognitiv salohiyatni rivojlantirish uchun zamin mavjudligini, biroq sotsiolingvistik jihat aniq nazorat ostiga olinmaganligini ko‘rsatadi.

3-rasm. O'quvchilarning kompetensiyaviy rivojlanish holati




Tashkiliy muammolar. Respondentlarning 74% i maxsus xona yetishmasligini eng jiddiy to‘siq sifatida ajratdi. Keyingi o‘rinlarni aniq metodik dasturning yo‘qligi (46%), vaqt taqchilligi (43%), o‘quvchilar ishtirokining sustligi (37%) va metodik materiallar tanqisligi (34%) egalladi (4-rasm). Bu natijalar muammoning ham moddiy-texnik, ham mazmuniy-metodik tabiatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

4-rasm. To'garak mashg'ulotlarini tashkil etishdagi asosiy muammolar



“Kitobxonlar klubi”ga munosabat. Modelning to‘garak samaradorligini oshirishiga oid taxminni respondentlarning 72% i so‘zsiz qo‘llab-quvvatladi, yana 10% i qisman ma’qulladi (5-rasm). Ochiq javoblarda o‘qituvchilar eng samarali faoliyat sifatida suhbat va muhokama, real vaziyatlarga asoslangan rolli o‘yinlar (role-play) hamda madaniyatlararo taqqoslashni sanab o‘tdi — bu aynan “Kitobxonlar klubi” modelining mazmuniy o‘zagiga mos keladi.

5-rasm. “Kitobxonlar klubi” modeliga munosabat



XULOSA

O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari ilgari surilgan farazni empirik jihatdan tasdiqladi. Birinchidan, amaldagi to‘garak mashg‘ulotlari mazmunan grammatikaga yo‘naltirilgan bo‘lib, sotsiolingvistik kompetentsiyani maqsadli rivojlantirish yetarli o‘rin egallamayapti; aynan shu ko‘nikma o‘quvchilarda eng zaif (71% — “o‘rtacha”) deb baholandi. Ikkinchidan, o‘qituvchilar interfaol va madaniyatga yo‘naltirilgan faoliyatlarni eng samarali deb tan oladi, biroq amalda ulardan kam foydalaniladi. Uchinchidan, “Kitobxonlar klubi” modeliga munosabatning yuqori darajada ijobiyligi (72%) ushbu yondashuvni joriy etishning pedagogik zaruriyat va amaliy asosga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Shu asosda, “Kitobxonlar klubi” modelini ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlariga tizimli ravishda integratsiya qilish 7–9-sinf o‘quvchilarining sotsiolingvistik va kognitiv kompetentsiyalarini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishi sifatida tavsiya etiladi. Buning uchun esa alohida metodik dastur ishlab chiqish va zarur tashkiliy shart-sharoitlarni ta’minlash birlamchi vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. — Clevedon: Multilingual Matters, 1997. — 124 p.
2. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. — 1980. — Vol. 1, № 1. — P. 1–47.
3. Hymes D. On Communicative Competence // Sociolinguistics. — Harmondsworth: Penguin, 1972. — P. 269–293.
4. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge: Harvard University Press, 1978. — 159 p.